



JAMIYATDA HUQUQIY MADANIYATNING O‘RNI

Olimov Amirxon Visoliddin o‘g‘li

*Toshkent davlat yuridik universitetining
Jinoiy odil sudlov fakulteti 1-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada huquqiy madaniyat nimaga kerakligi, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning ahamiyati, bularning yurt farovonligi va huquqiy muhitga bo‘lgan ta‘sirlari haqida aytib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *huquqiy ong, huquqiy madaniyat, shaxs, jamiyat, qonun ustuvorligi, davlat organlari.*

Annotation: *This article discusses the need for legal culture, the importance of legal awareness and legal culture in society, and their impact on the country's well-being and legal environment.*

Keywords: *legal consciousness, legal culture, individual, society, rule of law, state bodies.*

Аннотация: *В статье рассматривается необходимость правовой культуры, значение правосознания и правовой культуры в обществе, а также их влияние на благосостояние страны и правовую среду.*

Ключевые слова: *правосознание, правовая культура, личность, общество, правопорядок, государственные органы.*

Bugungi har tomonlama rivojlanayotgan zamonda har bir inson o‘z haq-huquqlarini to‘laqonli bilishi, shu bilan birga o‘z majburiyatlarini ham anglashi shart. Shu bilan birga aholining barcha qatlamlarining huquqiy savodxonligini oshirish, ularning huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirish davlat organlari va tashkilotlarining ustuvor vazifalaridan biridir. “Shaxs-oila-mahalla-ta‘lim muassasasi-tashkilot-jamiyat” tamoyili asosida faoliyat olib borish esa jamiyatda huquqiy ong va madaniyatning yanada yuksalishida asos bo‘lib xizmat qiladi.

Huquqiy madaniyat-jamiyatning huquqqa nisbatan umumiy bilim darajasi va xolis munosabati, insonlarning ijtimoiy hayotda o‘z huquq va majburiyatlarini mustaqil anglay olishi. Bu asosan boshqa subyektlar bilan muloqotga kirishganlarida yoki xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladi. Jamiyatda huquqiy madaniyat o‘z-o‘zidan rivoj topmaydi, balki uning yuksalishiga sabab bo‘ladigan bir qancha omillar bo‘lishi zarur. Xuddi shu ta‘sir qiluvchi omillariga qarab huquqiy madaniyatni ikki turga bo‘lishimiz mumkin:

-shaxsning huquqiy madaniyati;



-jamiyatning huquqiy madaniyati;
Shaxsning huquqiy madaniyati haqida ko‘plab olimlar o‘z asarlarida fikr bildirib o‘tishgan. Masalan:

A.X.Saidov o‘zining “Huquqiy madaniyat: nazariya va amaliyot masalalari” nomli asarida huquqiy madaniyatni “jamiyat a‘zolarining huquqiy qadriyatlarini anglash, ularga amal qilish va ularni rivojlantirishga bo‘lgan faol munosabati”^{ix} sifatida talqin etadi.

S.A. Narziqulov “Huquqiy tarbiya va huquqiy madaniyat” asarida huquqiy madaniyatni shaxsning huquqiy ong darajasi, huquqiy axloqi hamda huquq normalariga ongli ravishda amal qilishi bilan bog‘laydi^{ix}. Muallif yoshlar orasida huquqiy tarbiyani kuchaytirish, ularni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash zarurligini ta’kidlaydi.

Shu bilan birga, G‘arb olimlari orasida G.Radbruch, H. Kelsen,

L. Fuller kabi yuridik falsafa vakillari huquqiy madaniyatni huquqiy tizimning axloqiy poydevori sifatida talqin qiladilar. Ularning fikricha, qonunlarning amalda samarali ishlashi uchun fuqarolarda huquqqa nisbatan ichki e‘tiqod, mas’uliyat va ishonch bo‘lishi zarur.

Darhaqiqat, inson ijtimoiy hayotda faol bo‘lmas ekan, o‘zining huquq va majburiyatlarini anglamas va davlatga nisbatan ishonch va ma’suliyat bo‘lmas ekan, bu insonni huquqiy madaniyat va huquqiy ongga ega inson deya ta’kidlashimiz qiyin.


Bugungi kunda insonlarning huquqiy ongini yanada yuksaltirish uchun qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunga misol qilib,

Prezident Sh.M.Mirziyoyevning tashabbusi bilan 2019-yil 9-yanvarda qabul qilingan “Huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi”ni keltirishimiz mumkin. Unda aholining huquqiy savodxonligini oshirish, huquqiy targ‘ibot ishlarini takomillashtirish, ta’lim tizimida huquqiy madaniyatni mustahkamlash vazifalari belgilangan. Aynan shu konsepsiya ijrosi bo‘yicha yurtimizda “Huquqiy savodxonlik haftaligi”, “Yoshlar huquqshunosligi” kabi tadbirlar keng ko‘lamda o‘tkazib kelinmoqda.

Yuksak huquqiy ong va madaniyat jamiyatning ma’naviy rivojlanishini ta’minlaydi. Darhaqiqat, “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi”da ko‘rsatilganidek, yuksak huquqiy madaniyat demokratik jamiyat poydevori, huquq tizimi yetukligi ifodasidir. Bu jamiyatdagi turli hayotiy jarayonlarga faol ta’sir ko‘rsatuvchi fuqarolarning barcha ijtimoiy guruhlarini jipslashtirishga ko‘maklashuvchi, jamiyat yaxlitligini va tartibni ta’milovchi va mustahkamlovchi omildir. Qonunni hurmat qilish yuridik faoliyatining asosiy talablaridan biridir.

“Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi”da aytilganidek, Vatanimizning rivojlanish va islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan xalqning huquqiy ongi hamda huquqiy madaniyati darajasiga bog‘liqdir. Shaxsning siyosiy faolligi, demokratik islohotlarga intiluvchanligi belgilangan maqsadlarga tezroq erishishning muhim omilidir.^{ix}





Jamiyatning huquqiy madaniyati — bu umumiy madaniyatning bir qismi hisoblanib, u insoniyat tomonidan huquq sohasida to‘plangan va ushbu jamiyatning huquqiy voqeligi bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlar tizimlarining (huquqiy ong darajasi, huquq rejimi va qonunlar, tartib, qonunchilik holati, huquqiy amaliyot holati va boshqalar) yuqori darajasi huquqiy taraqqiyot ko‘rsatkichidir. Jamiyat madaniyati shaxslar, guruhlar va boshqa huquq subyektlarining ijtimoiy-huquqiy faoliyati natijasi ham hisoblanadi.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta‘minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to‘sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolinmoqda.

Xususan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta‘lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayapti. Uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki yetarlicha ta‘minlanmagan.


Aholining huquqiy bilimlarini oshirishga doir vazifalarning umumiy tusda belgilanganligi hamda ularni amalga oshirishning aniq ta‘sirchan mexanizmi mavjud emasligi jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarning samarasiz olib borilayotganligini ko‘rsatadi.

Ammo ayni yuqoridagilarni inobatga olib, bugungi kunda mamlakat bo‘ylab jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish masalasi ustuvor vazifalar qatoriga chiqdi. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalarini aholi ongiga singdirish ishlarining yetarli olib borilmasligi ham qonun ustuvorligini ta‘minlashga o‘zining jiddiy salbiy ta‘sirini ko‘rsatayotgani ham e‘tibordan chetda qoldirilmadi.

Huquqiy savodxonlikning belgilaridan biri bu - huquqiy targ‘ibotdir.

Huquqiy targ‘ibot va fuqarolarning huquqiy ongini oshirishning zamonaviy va ta‘sirchan uslublarini joriy qilish, ularga qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa normativ - huquqiy hujjatlar mazmun - mohiyati va ahamiyatini yetkazish, aholining huquqiy savodxonligini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Buning yaqqol isbotini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.01.2019-yildagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risidagi” PF-5618-son Farmoni timsolida ko‘rishimiz mumkin.



Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir ishlar samaradorligini yanada takomillashtirish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda huquqiy bilimlarini oshirib borishning zamonaviy usullarini joriy etish, shuningdek, aholini, ayniqsa, yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish bo'yicha mustahkam huquqiy immunitetni shakllantirish maqsadida bu farmon bugun jamiyat hayotida yashayapti, targ'ib qilinyapti. Nafaqat targ'ib etilibgina qolmay, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi va unda belgilangan vazifalarning ijobiy natijalariga ham guvoh bo'lishimiz mumkin.

Huquqiy targ'ibot-tashviqot ishlarida:

-Axborot-resurs markazlari hamda axborot-kutubxona fondlaridagi yuridik adabiyotlarni huquqshunoslar tomonidan puxta o'rganilib har xil shaklda xalqqa yetkazish va tushuntirish;

-Buyuk fiqhshunos alloma Marg'inoniy nomidagi maxsus huquqiy targ'ibot tashviqot markazini tashkil etish.

Xalqni huquq sohasida madaniyatli qilishning yana bir tomoni Oliy Yuridik ma'lumotli kadrlarni sonini ko'paytirish va sifatini oshirishdir. Buning uchun Oliy Yuridik ta'lim beruvchi ta'lim muassasalarini sonini ko'paytirish, yetuk malakali huquqshunos kadrlarni tayyorlash zarur. Shu o'rinda Abu Nasr Farobiyning fikrlarini esga olaylik. Mashhur faylasuf har bir mansabdor shaxs qonunlarni chuqur o'rganishi, ularga rioya qilishda shaxsan namuna bolishi, aholi o'rtasida qonunlarni keng targ'ib qilish, uni takomillashtirish bo'yicha takliflar kirita bilishi, joiz bo'lsa, qonun yoza olishi shartligini ilgari surgan.^{ix}

Ayni shu mezonlardan kelib chiqib Prezidentimiz 2019- yildagi Farmonlarida fuqarolar ongida "Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish-demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!",- degan hayotiy g'oyani mustahkamlash, aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmuni va mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish birlamchi vazifalardan etib belgilandi.

Shunday ekan, bugun biz ana shu qoidalarga hammamiz va hamma vaqt ham rioya etyapmizmi, degan haqli savol tug'iladi. Zero, qonun normalari odamlar ongiga singgan va ular orqali amal qilgan taqdirdagina yashaydi va ro'yobga chiqadi. Qonun esa xalqning xohish irodasidir.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, huquqiy madaniyat jamiyat barqarorligi, iqtisodiy taraqqiyot, shaxs erkinliklari va demokratik tamoyillarning poydevori hisoblanadi. Albatta, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishda davlat organlarining o'rni beqiyosdir, ammo bunda natijani ularning harakatidagina kutib qolmay, aholining o'zi ham harakatda bo'lishi, joriy etilgan qonun-qoidalarni inkor etadigan xatti-harakatlarni amalga oshirmasligi zarur. Natijada yurtimizda huquqbuzarliklar soni ancha kamayadi va mamlakatning huquqiy ahvoli yanada yuksaladi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi Toshkent sh. 1997-yil 29-avgust, 466-I-son
2. Saidov A. X. Huquqiy madaniyat: nazariya va amaliyot. — Toshkent: Adolat, 2003.
3. Narziqulov S. A. Huquqiy tarbiya va huquqiy madaniyat. — Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018 y
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 09.01.2019-yildagi. PF-5618 son "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida"gi Farmoni
5. Abu Nasr Farobiy Fozi odamlar shahri –T: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi ” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004.